

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2018 yil yanvar-sentyabr (dastlabki ma'lumot)



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Samarqand viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 343,3 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida 1694,1 ming so'mni ,(viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 126,1 %), Jomboy tumanida 1526,7 ming so'mni (113,7%), Kattaqo'rg'on shahrida 1360,9 ming so'mni (101,3 %), tashkil etgan bo'lsa, Paxtachi tumanida 1045,1 ming so'mni (77,8 %), Qo'shrabot tumanida 1059,6 ming so'mni (78,9 %), Samarqand tumanida 1071,9 ming so'mni (79,8 %), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2018 yil yanvar-sentyabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



*) Qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-sentyabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	1187,9	1343,27	113,1
Samarqand sh	1179,8	1694,1	143,6
Kattaqo'g'on sh	1187,9	1360,92	114,6
tumanlar:			
Oqdaryo	1052,6	1117,42	106,2
Bulung'ur	1084,9	1169,06	107,8
Jomboy	1189,9	1526,73	128,3
Ishtixon	1063,5	1173,31	110,3
Kattaqo'g'on	1023,6	1122,03	109,6
Qo'shrabot	979,3	1059,61	108,2
Narpay	1047,7	1177,88	112,4
Nurobod	1186,4	1204,32	101,5
Payariq	872,2	1078,69	123,7
Pastdarg'om	1113,8	1125,12	101,0
Paxtachi	1020,6	1045,06	102,4
Samarqand	1029,0	1071,91	104,2
Urgut	1072,7	1215,51	113,3
Tayloq	941,5	1084,0	115,1

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil sentyabr oyida **456,3 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

T.Ermatov
(66) 235-72-35